TA’LIM MAZMUNINI MODERNIZATSIYALASHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING TUTGAN O‘RNI

Gulbahor Yuldasheva
Hilola Shermatova
Farg‘ona davlat universiteti Axborot texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchilari

Annotatsiya: Ta`lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida modernizatsiyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Milliy ta’lim tizimini takomillashtirish jarayonida har yili zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati ortib bormoqda, ularning joriy etilishi ta’limni modernizatsiya va rivojlantirish, shuningdek, bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish va ta’limni fanga yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda.

Kalit so‘zlar: Modernizatsiya, raqamlashtirish, ta’lim, ta’lim texnologiyalari, raqamli madaniyat.

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim muassasalarida ta’limni tashkil etishning dasturiy- metodik ta’minoti, bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashning milliy va jahon ta’lim tajribasiga asoslangan tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish orqali mamlakatimiz intellektual resurslari potensialini oshirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon iqtisodiyotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar iqtisodiy munosabatlar va jamiyat taraqqiyotining sifat jihatdan yangi bosqichga o‘tayotgan bir paytda tadqiqotchilar bu jarayonlarning turli jihatlarini o‘rganishga harakat qilishmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, turli adabiyotlarda «innovatsion iqtisodiyot», «bilimlar iqtisodiyoti», «raqamli ta’lim», «axborotolashgan ta’lim», «raqamlashtirilgan ta’lim muhiti» kabi atamalar, jahon hamjamiyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichini ifodalovchi atamalar sifatida ishlatilib kelinmoqda [1].

ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi sharotida bo‘lajak professional ta’limi o‘qituvchilaridan quyidagi kasbiy va shaxsiy sifatlar talab etiladi:

Nazariy ta’limda: umumkasbiy tayyorgarlik fanlari bo‘yicha ilmiy bilimlarni egallash; fan, texnika, yangi axborot texnologiyalari va ishlab chiqarishni tashkil etishga oid bilimlar tizimini shakllantirish; iqtisodiy fikrlashni rivojlantirish; ta’lim oluvchilarda iqtisodiy madaniyati va ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Amaliy ta’limda: iqtisodiy va kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalartizimini shakllantirish; kompyuter texnikasi bilan ishlash; kasbiy faoliyatda zamonaviy didaktik vositalarini qo‘llash; iqtisodiy fikrlash va ijodiy faollikni muntazam rivojlantirish; iqtisodiy madaniyat va pedagogik tashkilotchilik malakalarini shakllantirish [2].

Shu bilan birga zamonaviy raqamli texnologiyalarini pedagogik ta’lim jarayonlariga joriy etish; talabalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyati; maqbul qaror qabul qilish malakasi; kommunikativ kompetentlik; estetik kompetentlik; kasbiy kompetentlik; axborot iste’moli madaniyatini rivojlantirishni ta’minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Modernizatsiya - (inglizcha modern - yangilanish, zamonaviylashtirish, ilmiy bilimlarni kengayishi degan ma'noni bildiradi). Tanlangan ob'ektni yangi zamonaviy davr talabalariga mos holda o'zgartirish, zamonaviy xususiyatlarni shakllantirishdir.

Ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, birinchidan ta'lim mazmunini zamon talablariga moslashtirishni, ikkinchidan, ta'lim mazmunini o'zlashtirishda pedagogik texnologiyalarni qo'llashni taqozo qiladi.

Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir. (V.Bespalko).

Pedagogik texnologiya – bu ta'lim shakllarini jadallashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiq etish va aniqlashning izchil metodidir. (YuNESKO) [2].

Demak, pedagogik texnologiya pedagogning ta'lim jarayonida ta'lim vositalari yordamida ta'lim oluvchilarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni, desak to'g'ri bo'ladi.

O'zbekistonda pedagogik texnologiyalarni qo'llashda quyidagi prinsiplarga amal qilinadi:

- Ta'lim oluvchi shaxsiga yo'naltirilganlik, ya'ni ta'lim jarayonini ta'lim oluvchining qiziqishi, individual xususiyatlari, bilim olish imkoniyatlariga muvofiq olibborish;
- Ta'lim jarayonini demokratlashtirish, ya'ni ta'lim jarayonini tashkil etish va uni olib borishda pedagog va ta'lim oluvchining teng huquqliligini ta'minlash;
- Ta'lim jarayonini axborot- kommunikatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish,ya'ni ta'lim oluvchilarga axborot uzatishning eng samarali vositalari hisoblangan virtual ma'ruza, virtual tajriba stendlarini yaratish va ulardan auditoriya mashg'ulotlarida va ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlarida erkin foydalanishni ta'minlash.
- Ilmiy tadqiqot orqali bilim olish, ya'ni ta'lim oluvchilarning yakuniy xulosa, tushuncha, qonun-qoidalarni o'zlari mustaqil ilmiy tadqiqot natijasida keltirib chiqarishlariga erishish.

Pedagogik texnologiyadan unumli foydalanib, o'quv mashg'ulotlarini puxta tashkil qilgan pedagog faoliyatida quyidagi bir qator yangilliklarni kuzatish mumkin [3]:

- o'quv mashg'ulotlarini pedagogik texnologiya yordamida tashkil qilish uchun maxsus ko'nikma va malakalar hosil qilinadi;
- tushunilishi qiyin bo'lgan mavzularni ta'lim oluvchilar ongiga singdirish osonlashadi;
- ta'lim oluvchining mustaqil izlanishi, vaziyatga to'g'ri baho bera olishi, o'quv mashg'uloti jarayonidagi faolligi ortadi;
- pedagogning texnologiya vositalaridan muntazam foydalanishi, darsning qiziqarli va mazmunli bo'lishini ta'minlaydi;
- ta'lim oluvchilarning o'quv materialini puxta o'zlashtirilishiga erishiladi vahokazo.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda, pedagogik texnologiyadan ta'lim jarayonida oqilona foydalanish ta'lim mazmunini ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga,davlat ta'lim standartlarida va malaka talablarida belgilangan bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirilishiga hamda ta'lim jarayonida kasbiy kompetentlikka ega mutaxassisni shakllanishiga imkoniyat yaratadi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Robert I. V. Ta'limni axborotlashtirish nazariyasi va metodikasi (psixologik-pedagogik va texnologik jihatlari) - El. ed. - M. : BINOM. Bilimlar laboratoriyasi, 2014. - 398 b.
2. Fabrikov, M. S. Innovatsion pedagogika: darslik - Vladimir: VlDU nashriyoti, 2020. - 256 b.
3. Mynboeva A.K. Innovatsion o'qitish usullari, yoki O'qitish qanchalik qiziqarli: darslik / - Olmaota: Qozog'iston universiteti, 2020. - 462 b.
4. Fayzullaeva N.S. Iqtisodiyotni raqamlashtirishning ta’lim jarayonini o‘zgartirishga ta’siri. Yevroosiyo ta'lim, fan va innovatsiyalar jurnali. 2021/1, 4-17-betlar.
5. Yuldasheva, G. I., & Yuldasheva, M. M. (2021). Factors of informatization of the process of primary education. Экономика и социум, (12-1 (91)), 689-692.
6. Yuldasheva, G., & Shermatova, H. (2022). Ta’limda innovatsion texnologiyalarning qo ‘llanilish istiqbollari. Science and innovation, 1(B8), 5-9.
7. G.I.Yuldasheva, M.M.Yo'ldosheva. Yangi innovatsion texnologiyalarning pedagogik jarayondagi roli. “Ilm-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida”. № 6. 127-130b.
8. Ibragimovna Y. G., Xokimovna K. Z. Informatika fanini o ‘qitish jarayonida Mobil texnologiyalardan foydalanish //Miasto Przyszłości. – 2022. – T. 29. – C. 385-387.
9. G.I. Yuldasheva, M. M. Yo‘ldosheva (2023). Zamonaviy informatikani o‘qitish: maqsad, mazmun, usullar. ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference. 2(14). 146–149.
10. Yuldasheva, G., & Yo‘ldosheva, M. (2023). Texnologik rivojlanishda sun’iy intellektning ahamiyati. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(9), 138-141.
11. Yuldasheva, G. I., & Shermatova, K. M. (2021). The use of adaptive technologies in the educational process. Экономика и социум, (4-1), 466-468.
12. Yuldasheva, G. I., Shermatova, H. (2022). Aniq fanlarni o’qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish. *Scientific progress*, *3*(1), 372-376.
13. Йулдашева, Г., & Йўлдошева, М. (2022). Использования информационных технологий в организациях. Scientific progress, 3(3), 477-480.
14. G.Yuldasheva., D.Begmatova Zamonaviy ta’lim tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanish. International Academic Research Journal 2022. 57-61.
15. Yuldasheva, G., & Yo‘Ldosheva, M. (2023). Raqamli iqtisodiyot va texnologiyalarni rivojlantirish asoslari. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, *5*(Special issue), 236-240.